

XORAZMDAN MAKKA SARI: AZ-ZAMAXSHARIY

Artiqova Adolat Ataboyevna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti



Bugungi kunda mamlakatimizda buyuk mutafakkirlarimizning ma'naviy merosini o'rganish, ularning ijodini targ'ib va tadqiq etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yurtimizda ma'rifatni yuksaltirish va ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishning samaradorligini oshirish, boy tarixiy merosimizning tiklanishi, komil insonni tarbiyalashda ulardan oqilona foydalanishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.Mitziyoyev ta'kidlaganidek: "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim".¹ O'zbekiston tarixining ilm- fan sohalari insoniyat uchun betakror mo'jizalari, dunyo tamaddunida muhim o'rin tutgan ilm-fan yutuqlari bilan asrlar o'tsa-da, o'zining ilmiy nufuzini saqlab kelmoqda. Shunday allomalar sirasiga, shubhasiz, Mahmud Zamaxshariy ham haqlidir.

Chunki bu vatandoshimiz fanning turli sohalariga oid katta ilmiy meros qoldirgan. Ayniqsa, uning arab tilshunosligi, adabiyotshunosligi, lug'atshunosligi borasidagi ilmiy merosi hali-hanuz musulmon dunyosining noyob ilmiy manbasi sifatida yuksak qadrlanib kelinmoqda.

Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida Qur'oni karim oyatlarining sharhlariga oid manbalar ham alohida e'tibor va e'tirofga loyiq. [Tafsirga] bo'lgan munosabati Tabariy va Ibn Kasir asarlari bilan bir qatorda turadi. Savol tug'iladi: qanday qilib mo'taziliylik ta'limotiga amal qilgan olim tomonidan yozilgan sharh (tafsir) shu

¹ Mirziyoyev Sh.M.Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik 5-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023- B.67.

paytgacha mashhur bo'lib qolgan? Javob , balki Zamaxshariyning filologik faoliyatida. Islom ekzegetikasining boshqa tan olingan ustozlaridan farqli o'laroq, u Tabariy va Ibn Kasir kabi tarixchi emas, Faxr ad-Din ar-Roziy kabi faylasuf emas, Qurtubiy va Ibn Arabiy kabi qonunshunos emas. U tilshunos va ritorikdir, sharhlovchi (mufasssir) sifatida esa birinchi o'rindagi ritorikdir. Ehtimol, hech kim u kabi Islom muqaddas kitobi matnini, uning stilistikasini, kompozitsiyasini bunchalik chuqur his qilmagan bo'lsa kerak.

U ma'nodagi eng nozik qirralarni ilg'aydi, jumlar va fikrlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'zgacha his qiladi. Uning tafsirida doimiy beriladigan savollar: "Nima uchun bu aynan shu oyatlardan keyin aytilgan?" yoki "Nima uchun bu odatda boshqacha aytilsa-da, bu yerda bunday aytilgan?" va hokazo. Bu savollarga berilgan aniq, ba'zan paradoksal javoblar o'quvchini matnning tub ma'nosini anglashga yaqinlashtiradi va Zamaxshariy tafsirining eng mashhur, eng ko'p o'qiladigan va e'zozlanadigan tafsirlar qatoridan joy olishini ta'minladi.

Globalashuv sharoitida yangi zamon kishilarining ma'naviy, axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish va mukammallashtirish yildan-yilga dolzarb bo'lib borayotgan bir paytda ulardan foydalanish barkamol avlod tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

Shu jihatdan, vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariyning boy ilmiy merosini o'rganish, uni xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida tadqiq etish, respublikamiz ilm-fani iste'moliga zamonaviy tahlil va talqinda taqdim etish, keng jamoatchilikka, xalqimizga tanitish, asarlarini nashr etish katta ahamiyatga ega. Zero, Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi umumbashariy metodologik ahamiyatga molik ilmiy meros, ma'naviy qadriyat sifatida dunyo miqyosida keng qamrovli tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, alloma ilmiy faoliyatining muhim qismi etarli darajada tadqiq etilmagan. Shu ma'noda ushbu meros O'zbekiston ijtimoiy hayotida, xususan, tarixiy

manbashunoslik ixtisosligida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Zamaxshariyning ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish jahon sharqshunosligida o'zining muayyan o'rniga ega. Xususan, ibn Xallikon, ibn al-Anbariy, Yoqut al-Hamaviy, al-Yofi'iy, ibn al-Javziy, Jaloliddin as-Suyutiy va Hoji Xalifa kabi olimlarning asarlarida uning hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar saqlangan.

Zamaxshariy o'z davrining yetuk tilshunosi, lug'atshunosi, islomshunosi va adabiyotshunosi sifatida mashhur edi. Bunda uning ustozlari – Abu Mudar Mahmud ibn Jarir ad-Dabbiy al-Isfahoniyni hissasini katta bo'lgan. Shuningdek, u Shayx al-Hayotiy, imom Rukniddin Mahmud al-Usuliy va imom Abu Mansurlardan fiqh va ilohiyot ilmlari bo'yicha ta'lim olgan.

Alloma o'z asarlarini asosan arab tilida yozgan. I.Yu. Krachkovskiyning fikricha, kelib chiqishi arab bo'lmagan Zamaxshariy arab madaniyatining ko'zga ko'ringan namoyandasi bo'lib yetishgan. Arab olimlari uning ilmiy faoliyatiga chuqur ehtirom bilan qarab: «Arablar Movarounnahrni qurol bilan egallay olmadilar, lekin xorazmlik alloma o'z hassasi bilan butun arab dunyosini egallab oldi», deb e'tirof etganlar.

XULOSA

Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi umuminsoniy metodologik ahamiyatga ega ma'naviy qadriyatdir. Uning asarlarini filologiya, manbashunoslik va islomshunoslik yo'nalishlarida yanada chuqurroq tadqiq etish, respublikamiz ilmfani uchun dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Xoji Xalifa. Kashf az Zunun. Dor Saodat. –J.2. –B. 147; Doktor Mustafo as As-Soviy al-Juvayniy. Manhaju az-Zamaxshariy fi tafsir al-Qur'an va bayani i'jazihi. –Misr: Dor al-Maorif, 1984.

2.Doktor Mustafo as-Soviy al-Juvayniy. Manhaju az-Zamahshariy fi tafir al Qur'an va bayani i'jazihi. Dor al Maorif. Misr.

3.1966 . القاهرة العربى الفكر دار. الزمخشري. الحوفى أحمد الدك تور .

4.1989. بيروت. المعارف مكتبة. العروض علم فى القسطاس. ق. باوة الدين فى خير الدك تور.

